

Tarix fanlaridan an'anaviy Avgust kengashlariga

TAVSIYA

Davlatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy fanlarga bo'lgan munosabat ham tubdan o'zgardi, o'z tariximizni haqqoniy, xolisona o'rganish va o'rgatish davri boshlandi.

Barkamol avlod tarbiyasida tarix fani muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda, o'zbek xalqining hayoti va faoliyati, xalqparvarligi, vatanparvarligi haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni yetkazishda tarix fani asosiy rol o'ynaydi. Insonni yuksaklikka yetaklaydigan, tug'ilib o'sgan yurtining tarixini bilgan holda, boshini mag'rur ko'tarib yurishi uchun asos bo'la oladigan kuch bu tarixiy xotiradir. Zero, muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Tarixiy xotirasiz — kelajak yo'q!". O'zlikni anglash, eng avvalo, o'tmishni o'rganishdan, tarixni bilishga ehtiyojni his qilishdan boshlanadi.

Tarix fani o'quvchilarda o'zligini anglash, milliy merosni o'rganish, uni asrab-avaylash, milliy an'analar va qadriyatlarini hurmat qilish, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Quyida an'anaviy Avgust kengashlarining sho'ba yig'ilishlarida tarix fani o'qituvchilari ushbu tavsiyalardan ijodiy yondashgan holda foydalanishini tavsiya etamiz.

Sho'ba ishlarini tashkil etishda quyidagi mavzularga to'xtalish taklif etiladi:

- Davlat ta'lim standartlari sharhlariga kiritilgan o'zgartirishlar;
- o'quv dasturlari uzviyligi va uzluksizligining ta'minlanishi;
- yangi nashr etilgan darsliklar va ulardagi yangiliklar;
- elektron darsliklar va o'quv filmlardan foydalanish;
- dars tahlili, uning usullari, maqsad va vazifalari;
- Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" kitobidagi konseptual g'oyalarni ta'lim mazmuniga singdirish usullari;
- o'quvchilar bilimini baholashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar.

Sho'ba ishlarini tashkil etishda tarix fanining mazmuni, oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqish tavsiya etiladi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi — bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi demakdir. Ushbu tamoyilga amal qilgan holda o'qituvchilar har bir darslarining tub mazmunini asosan tarbiyaga qaratishlari, ya'ni tarbiyani ta'lim orqali singdirishi lozim.

Tarix fani sho'basini tashkil etishda maktabdagi tarix va huquq fani bo'yicha uslubiy birlashmaning yillik ish rejasini belgilash, o'tgan o'quv yilida belgilangan vazifalar va ularning ijrosi, rejalashtirilgan ishlar, ijtimoiy fanlar Davlat ta'lim standartlari sharhlari va o'quv dasturlariga kiritilgan o'zgartirishlar va tuzatishlar tahliliy monitoringi jadvali tayyorlanadi.

Metod birlashmalari va metod uyushmalarining hamda o'qituvchilar uchun yillik, oylik ish rejalari namunasi, yil davomida tuman va viloyat miqyosida tashkil etiladigan tadbirlar rejasini tarqatiladi.

Viloyat, shahar, tuman maktab o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan "Eng yaxshi dars ishlanmasi" yig'ma jildini tayyorlab, ular bankini yaratish va viloyat miqyosida ommalashtirish tavsiya etiladi.

Maktab, tuman, viloyat o'qituvchilar jamoasining yoshlarga bilim berishdagi mehnatlari sarhisobini, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish borasida qilingan ishlar taqdimoti tashkil qilinadi.

Quyidagi tashkiliy ishlar e'tibordan chetda qolmasligi lozim:

- o'quvchilarning fanlar bo'yicha egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari monitoringi (ichki va tashqi nazorat tahlili);
- tarix fani o'qitilishini takomillashtirish va o'quvchilar bilim samaradorligini oshirishga qaratilgan o'qituvchilar va keng jamoatchilik tomonidan berilgan taklif-mulohazalar;
- tarix fanidan Avgust kengashlarini tashkil etish bo'yicha viloyat miqyosida bajarilgan ishlar haqidagi ma'lumotlarning yig'ma jildini tayyorlash va h.k.

Tarix fanidan 2010-2011- o'quv yilida foydalanishga tavsiya etilayotgan darsliklar qatorida 8-sinf — «O'zbekiston tarixi» (mualliflar Q.Usmonov va boshqalar), 8-sinf — «Jahon tarixi» (mualliflar U.Jo'raev va boshqalar), 9-sinf «Jahon tarixi» (mualliflar M.Lafasov va boshqalar), 9-sinf — «O'zbekiston tarixi» (A.Zamonov va S.Tillaboyev muallifligida) darsliklarining yangi avlodi yaratildi.

9-sinf O'zbekiston tarixi (A.Zamonov, S.Tillaboyev). Ushbu darslik 2010-2011- o'quv yili uchun darsliklar tanlovida g'olib chiqib, yangidan yaratildi. Unda milliylikka ko'proq e'tibor qaratilib, yangi ilustrativ materiallar bilan boyitilgan. Darslikda o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun savol va topshiriqlar yangi pedagogik texnologiyalar asosida berilgan. Shuningdek, darslikka Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" kitobidagi konseptual g'oyalar singdirilgan. O'rganilayotgan davr madaniyati, og'ir davr bo'lishiga qaramasdan, xalqimizning yangilikka intilishi, ziyolilar safining oshishi, jadid maktablarining tashkil topishi va ularning millat g'ururini ko'tarishda olib borgan ishlari keng yoritilgan. Darslikdagi ayrim tortishuvlarga sabab bo'lgan joy nomlari, tarixiy sanalarga bir necha manbalarga asoslangan holda aniqlik kiritildi. Masalan, Xivadagi Muhammad Aminxon madrasasining qurilishi 1851-55-yil, Qo'qon amir lashkari Alimqul-Aliquli, Avliyo ota hozirgi kunda Taroz deb atalishi ko'rsatildi. Shuningdek, darslikda XIX asr o'rtalaridagi O'rta Osiyo xonliklari xaritasi, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga harbiy yurishlari xaritasi, XX asr boshida O'rta Osiyo xaritasi va Rossiya imperiyasi tomonidan XIX asr boshida tuzilgan O'rta Osiyo xaritasi berildi.

Ushbu darslikka qo'shimcha ravishda o'qituvchilar uchun alohida metodik qo'llanma tayyorlanib, unda iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularga beriladigan topshiriqlar, yangi pedagogik usullar, shuningdek, o'qituvchilar uchun yangi

ma'lumotlar kiritildi. Yana bir yangilik — 9-sinf «O'zbekiston tarixi» elektron darsligi va o'quv filmidan foydalanish usullari ham to'liq berilgan.

Tarix o'quv fanidan Davlat ta'lim standartlariga berilgan sharhlar tahlil qilinganda quyidagi kamchiliklar ma'lum bo'ldi:

Tarix o'quv fani bo'yicha Davlat ta'lim standarti sharhlarida o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos kelmaydigan, fanlararo bog'lanishni ta'minlamaydigan, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida takrorlanadigan, avvalgi 10–11-sinflarda o'rganib kelingan tushunchalar, shuningdek, yuqori sinflar tarix fanida o'qitilishi belgilangan bilimlar 5-sinfga asossiz ravishda kiritilganligi aniqlandi. Jumladan:

kasb-hunar ta'limi 2-bosqich — “Jahon tarixi” va “O'zbekiston tarixi” fanida:

- dunyoning XX asrdagi ahvoli to'g'risidagi bilimlar;

- tinchlik uchun kurashmoq kerakligini bilish (terrorchilik, ekstremizm kabi tushunchalarning o'quvchilar psixologiyasiga to'g'ri kelmasligi).

7-sinf “Jahon” va “O'zbekiston tarixi” fanida:

- o'rta asrlarning muhim tarixiy voqealari haqida bilimlarga ega bo'lish, sohibqiron Amir Temur bobomiz haqida, uning davlat arbobi va buyuk sarkarda ekanligi, tarix maydonidagi o'rni, ularning bunyodkorlik ishlari haqida bilimlarga ega bo'lish.

Davlat ta'lim standartida mavjud bo'lmagan bilimlar 5-sinf davlat ta'lim standartlari sharhlariga kiritilgan. Jumladan:

- har bir mamlakat, har bir xalqning o'z tarixi, o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi haqida tushunchaga ega bo'lish;

- jahon xalqlarining hayoti, dunyoda sodir bo'lgan tarixiy voqea-hodisalar umumiy va o'zaro bog'liq holda kechganini bilish.

Shuningdek, 7-sinf “Jahon tarixi”da V—XVI asrlarda bo'lgan davrlar o'rganilishi sababli ushbu tarixiy voqealar o'rganilayotgan davrga mos kelmaydi:

- Rusda markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi. Zemskiy Sobor to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish;

- Rus davlatchiligida dinning o'rni to'g'risida bilish;

- Yevropada ijtimoiy harakatlarning sabablari. Qo'zg'olonlar, diniy harakatlar, yeretiklar, guschilar harakatlarining mohiyatini bilish;

- Livoniya urushi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish;

- Yevropada reformatsiya. Germaniyada dehqonlar urushi. Niderlandiya inqilobini bilish talablari;

- Buyuk geografik kashfiyotlar. Ijtimoiy guruhlar, tabaqalarning vujudga kelishi. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, ma'naviy hayoti, xo'jalik hayotidagi o'zgarishlar, yer egaligi (G'arbiy Yevropa, Rus, Yaqin Sharq, Xitoy, Hindiston) to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish.

Ishchi guruhi a'zolari, mualliflar va tegishli mutaxassislar tahlil natijalarini har tomonlama muhokama (konsilium) qilib, mazkur kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqdilar.

Shular asosida kamchiliklar quyidagicha bartaraf etildi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining Davlat ta'lim standartlari sharhlaridagi:

- dunyoning XX asrdagi ahvoli to'g'risidagi bilimlar;

- tinchlik uchun kurashmoq kerakligini bilish (terrorchilik, ekstremizm kabi tushunchalarning o'quvchilar psixologiyasiga to'g'ri kelmasligi) kasb-hunar kollejlarining 1-kursida takrorlanayotgani sababli;

- har bir mamlakat, har bir xalqning o'z tarixi, o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi haqida tushunchaga ega bo'lish;

- jahon xalqlarining hayoti, dunyoda sodir bo'lgan tarixiy voqea, hodisalar umumiy va o'zaro bog'liq holda kechganini bilish talablari Davlat ta'lim standartlari talablarida mavjud emasligi sababli umumta'lim maktablarining 5-sinfi o'quv dasturidan chiqarildi.

O'rta asrlarning muhim tarixiy voqealari haqida bilimlarga ega bo'lish, sohibqiron Amir Temur bobomiz haqida, uning davlat arbobi va buyuk sarkarda ekanligi, tarix maydonidagi o'rni, uning bunyodkorlik ishlari haqida bilimlarga ega bo'lish talablari:

- tariximizning oltin davri haqida ma'lumotlarga ega bo'lish;

- Amir Temur hayoti bilan bog'liq hikoya va rivoyatlarni bilish deb optimallashtirildi.

7-sinf “Jahon tarixi” standarti sharhidan tarixiy voqealar izchilligi nuqtai nazaridan quyidagi talablar 8-sinf “Jahon tarixi” fani standarti talablariga ko'chirildi:

- Rusda markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi. Zemskiy Sobor to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish;

- Rus davlatchiligida dinning o'rni to'g'risida bilish;

- Yevropada ijtimoiy harakatlarning sabablari. Qo'zg'olonlar, diniy harakatlar, yeretiklar, guschilar harakatlarining mohiyatini bilish;

- Livoniya urushi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish;

- Yevropada reformatsiya. Germaniyada dehqonlar urushi. Niderlandiya inqilobini bilish;

- Buyuk geografik kashfiyotlar. Ijtimoiy guruhlar, tabaqalarning vujudga kelishi. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, ma'naviy hayoti, xo'jalik hayotidagi o'zgarishlar, yer egaligi (G'arbiy Yevropa, Rus, Yaqin Sharq, Xitoy, Hindiston) to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish.

Ushbu tushunchalar o'rniga quyidagi bilimlar kiritildi:

- Saljuqiylar va Usmoniy turklar imperiyasining tashkil topishi;

- Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi;
- Xristian cherkovining bo‘linish sabablari va uning oqibatlari.

O‘quv dasturi tahlil qilinganda, o‘quvchining yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos kelmaydigan, fanlararo bog‘lanishni ta‘minlamaydigan, asosan, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida takrorlanadigan, avvalgi yuqori sinflarda va boshqa fanlarda o‘rganilishi lozim bo‘lgan ba‘zi mavzular va ulardagi tushunchalar 5-sinf “Tarixdan hikoyalar” kursiga asossiz ravishda ko‘chirilganligi aniqlandi.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun 5-sinf “Tarixdan hikoyalar” dasturiga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Mazkur mavzular o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tarix kurslarida hamda 6, 7, 8, 9-sinf “Jahon tarixi”, “O‘zbekiston tarixi” fanlarida o‘qitilishini e‘tiborga olgan holda, 6-sinf tarix dasturida qaytarilgani uchun:

- “O‘zbekiston — Vatanim manim”, “Tarix fani haqida”, “Tarixda yil hisobi”, “Eng qadimgi odamlar”, “Insoniyat hayotidagi o‘zgarishlar”, “Misr va Bobil davlatlari”, “Qadimgi Xitoy va Hindiston”, “Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlari”, “Xorazm va Baqtriya davlatlari”, “Turon va Eron”, “Iskandar Zulqarnaynning O‘rta Osiyoga yurishi”, “Buyuk ipak yo‘li”.

(Jami 12/14 soatlik).

7-sinf “Jahon va O‘zbekiston tarixi” fanida qaytarilgani uchun:

- “German qabilalari. Qirolliklar”, “Slavyan qabilalari. Kiyev Rusi”, “Arablarining O‘rta Osiyoga yurishi”, “O‘rta osiyolik buyuk siymolar”, “Chingizxon bosqini”, “Mahmud Tarobiy qo‘zg‘oloni”, “Amir Temur siyosiy kurash maydonida”, “Amir Temur — oliy hukmdor”, “Samarqandni qaytadan bunyod etamiz”, “Amir Temur — markazlashgan davlat asoschisi”, “Amir Temurning jahon tarixidagi o‘rni”, “Ilm-fan va madaniyatning oltin asri”.

(Jami 12/14 soatlik).

8-sinf “Jahon tarixi” va “O‘zbekiston tarixi” fanida qaytarilgani uchun:

- “Hindiston va Bobur”, “Amerikaning kashf etilishi”, “XVII-XVIII asrlarda Yevropada ilm-fan taraqqiyoti”, “Amerika Qo‘shma Shtatlari”, “Yurt obodonchiligi yo‘lida”, “Tanazzul”, “Ichki ziddiyatlar oqibati”, “XVIII-XIX asr boshlarida ilm-fan taraqqiyoti”, “XIX asr madaniyat namoyandalari”.

(Jami 9/10 soatlik).

9-sinf “Jahon tarixi” va “O‘zbekiston tarixi” fanida qaytarilgani uchun:

- “O‘rta Osiyoni egallash orzusi”, “Vatan mudofaasi”, “Mustamlakachilikka qarshi kurash”, “Birinchi jahon urushi” mavzusidagi ayrim tushunchalar.

(Jami 4/4 soatlik).

Davlat ta‘lim standartlari talablarida mavjud bo‘lmaganligi uchun o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi “Jahon va O‘zbekiston tarixi” fanida qaytarilgani uchun:

- “Rossiyada fevral inqilobi va Turkiston”, “Beshikda bo‘g‘ilgan muxtoriyat”, “Quloqlashtirish”, “Ziyolilarning qatag‘on qilinishi”, “Ikkinchi jahon urushi”, “O‘zbekiston xalqlarining g‘alabaga qo‘shgan hissasi”, “Birlashgan Millatlar Tashkiloti”, “Dunyo bolalari”, “Jahon mustamlakachilik tuzumining yemirilishi”, “Iztirobli va tahlikali yillar”, “Orziqib kutilgan mustaqillik”, “Davlatimiz ramzlari”, “Iqtisodiy taraqqiyot”, “Dunyo XX asr oxiri — XXI asr boshlarida”, “Dunyo bolalari”, “Tinchlik uchun kurashmoq kerak” mavzulari dasturdan chiqarildi.

(Jami 16/16 soatlik).

Ularning o‘rniga o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagi yangi mavzular kiritildi:

Kirish. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “Tarix fani nimani o‘rganadi?”, “Tarixiy manbalar”, “Dunyo xaritasi tarixi”, “Eng qadimgi odamlar va ularning manzilgohlari”, “Qadimgi odamlarning turmush tarzi”, “Arxeologiya tarixidan”, “Muzeylar”, “Afsonalar”, “Qoyatosh suratlari”, “Yozuvning paydo bo‘lishi”, “Qadimiy diniy e‘tiqodlar”, “Avesto” — ajdodlarimizning ilk yozma tarixiy manbasi”, “O‘zbekistonning milliy qadriyatlar”, “Eng qadimgi sivilizatsiyalar”, “Qadimgi shaharlar qanday paydo bo‘lgan?”, “Dunyodagi qadimgi davlatlar”, “Qadimgi dunyoning yetti mo‘jizasi”, “O‘zbekistondagi eng qadimgi davlatlar”, “Tangalar — tarix guvohi”, “Savdo yo‘llari”, “Dengiz yo‘llarining kashf etilishi”, “Ishlab chiqarish texnikasining paydo bo‘lishi”, “Transport vositalarining kashf etilishi”, “Aloqa vositalarining kashf etilishi”, “Maktab — ilm o‘chog‘i”, “Yurtimiz allomalari”, “Buyuk daholar kashfiyotlari”, “Turkiston ma‘rifatparvarlari”, “Olimpiya o‘yinlari: qadimda va hozir”, “To‘maris va Shiroq jasorati”, “Spitamening qahramonligi”, “Arablariga qarshi xalq ozodlik kurashlari”, “Jaloliddin Manguberdi”, “Amir Temur jasorati va uning davlati”, “Temuriylar davri madaniyati”, “O‘zbekistondagi eng qadimgi tarixiy shaharlar”, “Toshkent — 2200 yoshda”, “O‘zbekistonning tarixiy- me‘moriy obidalar”, “Tarixiy obidalar”, “O‘zbekiston mustaqilligining qo‘lga kiritilishi”, “O‘zbekiston va jahon”, “O‘zbekistonning iqtisodiyotdagi yutuqlari”, “O‘lkashunoslik darsi”, “Dunyo xavfsizligiga tahdid”, “XXI asr — ilm va taraqqiyot asri” (48 soat).

Quyidagi mavzular esa optimallashtirildi:

- “Tarixda yil hisobi”, “Birinchi jahon urushi”, “Ikkinchi jahon urushi”, “Birlashgan Millatlar Tashkiloti”, “Ma‘naviy va ma‘rifiy yuksalish”.

Bundan tashqari, ishchi guruhi 6—9-sinf o‘quv dasturlarining ayrim mavzularidagi tushunchalarni takomillashtirishga erishdi. Bunda o‘quv dasturlaridagi mavzu nomlariga daxl qilinmadi.

6-sinf Tarix fani o‘quv dasturidagi 19-mavzu: “Miloddan avvalgi III-I asrlarda Xitoy” mavzusida berilgan “Sariq chilvirlilar” tushunchasi xato yozilganligi sababli “Sariq ro‘mollilar” deb o‘zgartirildi.

49-mavzu: “Qullar va gladiatorlar”.

47-mavzuda ham (“Rim Respublikasi hayoti”) qullar va gladiatorlar, Spartak qo‘zg‘oloni haqidagi tushunchalar mavjud.

Mazkur kamchilikni bartaraf etish yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

47-mavzudagi qullar va gladiatorlar, Spartak qo'zg'oloni haqidagi tushunchalar olib tashlangani uchun 49-mavzu ("Qullar va gladiatorlar")ning nomi o'zgartirilmadi.

7-sinf "O'zbekiston tarixi" o'quv fani dasturidagi 20-mavzu: "O'rta osiyolik mutafakkirlar. Ilm-fan ravnaqi" mavzusi bo'yicha o'rganilayotgan davrga taalluqli bo'lgan Abduxoliq G'ijduvoni haqidagi ma'lumotlar qo'shimcha qilib kiritildi.

8-sinf "O'zbekiston tarixi" o'quv fani dasturidagi 9-mavzu: "Buxoro xonligidagi madaniy hayot". Shayboniylar hukmronligining barham topishi tushunchasi mavzuga taalluqli emasligi sababli "Buxoro xonligi" mavzusiga ko'chirildi.

9-sinf "Jahon tarixi" o'quv fani dasturidagi 15-mavzu: 1914—1918 yillardagi birinchi jahon urushi va uning oqibatlari mavzusi hozirgi kunda I jahon urushining oqibatlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'qitilganligi sababli 15-mavzu: "1914-1918-yillardagi birinchi jahon urushi va uning yakunlanishi" deb o'zgartirildi.

Davlat ta'lim standartiga berilgan sharhlarda hamda dasturlardagi kamchiliklar umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida tarix fanini o'qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan to'liq tuzatildi. Davlat ta'lim standartiga berilgan sharhlarning yangi loyihasi, o'quv dasturlari tarix fani bo'yicha ilmiy-metodik kengashning 2010-yil 8-may kuni o'tkazilgan yig'ilishida muhokama qilindi va 2-sonli qarori bilan amaliyotga joriy etishga tavsiya etildi.